

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

# THE SIGNIFICANCE OF FOREIGN EXPEDITIONS IN THE STUDY OF PALEOLITHIC SITES IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN

N. Abduvaliyeva

Doctoral Candidate of the Uzbekistan  
China Joint Department of Archaeology  
Fergana State University

### Abstract

This article analyzes the role and significance of foreign archaeological expeditions in the study of Paleolithic sites located in the territory of Uzbekistan. Particular attention is paid to the results of archaeological research conducted within the framework of international scientific cooperation, the application of modern research methods, and the achievements in studying the culture of the Paleolithic period. The study also highlights the scientific importance of research on the lifestyle of ancient humans in the territory of Uzbekistan, their tools, and cultural development. The contribution of foreign expeditions, including scholars from the United States, Japan, China, and Russia, who conducted archaeological excavations and scientific analyses, is examined, emphasizing their important role in the deeper study of the history of primitive society in Central Asia.

**Keywords:** United States, Japan, China, Russia, Paleolithic period, archaeological research, foreign expeditions, ancient sites, primitive society, archaeology, Central Asia, Stone Age culture, scientific cooperation, archaeological excavations.

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

### KIRISH

O‘zbekiston hududi insoniyat tarixining eng qadimgi bosqichlarini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Bu hududda aniqlangan paleolit davri yodgorliklari Markaziy Osiyoda ibtidoiy insonning shakllanishi, uning xo‘jalik faoliyati, mehnat qurollari va madaniy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Selungur, Teshiktosh, Obirahmat, Ko‘lbuloq, Amanqo‘ton kabi paleolit yodgorliklari nafaqat O‘zbekiston, balki butun Yevroosiyo hududidagi qadimgi madaniy jarayonlarni yoritishda alohida o‘rin tutadi.

Paleolit davri yodgorliklarini ilmiy asosda o‘rganish XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida boshlangan bo‘lib, bu jarayonda mahalliy olimlar bilan bir qatorda xorijiy tadqiqotchilar ham faol ishtirok etgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida O‘zbekistonda xalqaro arxeologik ekspeditsiyalar faoliyati kengayib, paleolit davri yodgorliklarini zamonaviy ilmiy usullar asosida tadqiq etish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Bu ekspeditsiyalar tomonidan olib borilgan qazish ishlari, stratigrafik tahlillar, paleoantropologik va paleoekologik tadqiqotlar natijasida mintaqa tarixining ilk bosqichlari haqida yangi ilmiy ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi.

Xususan, AQSH, Yaponiya, Xitoy va Rossiya olimlari ishtirokida amalga oshirilgan qo‘shma arxeologik tadqiqotlar O‘zbekiston hududidagi paleolit yodgorliklarining xronologiyasi, madaniy qatlamlari va ularning Yevroosiyo miqyosidagi o‘rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Xalqaro ilmiy hamkorlik doirasida radiouglerod tahlillari, geoarxeologik tadqiqotlar, mikrolitik industriyani tahlil qilish kabi zamonaviy metodlar keng qo‘llanilib, ilk inson faoliyatiga doir yangi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston hududidagi paleolit davri yodgorliklarini o‘rganishda xorijiy arxeologik ekspeditsiyalarning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish, ularning ilmiy natijalarini umumlashtirish hamda Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamiyat tarixini o‘rganishga qo‘shgan hissasini baholash muhim ilmiy

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu masalalar atroflicha tahlil qilinib, xorijiy ekspeditsiyalar faoliyatining ilmiy ahamiyati yoritib beriladi.

### ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolada tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalangan holda, tadqiqot uchun qo'yilgan asosiy maqsad hisoblangan ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan ilmiy tahminlarning hozirgi arxeologik tadqiqotlarda asoslanganligi ochib berishga harakat qilingan.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida xorijiy arxeolog olimlardan M.Glantz [1], A.Shrauber [1], P.Xuges [1], Y.Nishiaki, X.Nakata, S.Arai, CH.Akashi [4], va boshqa olimlar tomonidan Markaziy Osiyoning tosh davri tarixi tadqiq etildi. Shuni qayd etish kerakki, aksariyat xorijiy olimlar sovet davrida Markaziy Osiyoga kelishga imkoniyat berilmaganligi sababli o'zlarining tadqiqotlarini sovet olimlari e'lon qilgan ilmiy natijalari tahlili asosida tayyorlaganlar. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin esa xorijiy olimlar bevosita tosh davri manzilgohlariga kelib tadqiqot olib borishdi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Yurtimiz hududida o'rta paleolit davriga oid eng muhim yodgorliklardan biri Angillak g'or-makoni hisoblanadi. Angillak yodgorligi Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida, Qashqadaryoning o'ng irmoqlaridan biri bo'lgan Oyoqchisoyning yuqori qismida joylashgan bo'lib, 2001-yilda R.X.Suleymanov va M.Glantz boshchiligidagi O'zbekiston-AQSH qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan aniqlangan [1]. Yodgorlik 2001–2004-yillarda ushbu qo'shma ekspeditsiyalari tomonidan, 2013–2014-yillarda esa O'zbekiston-Yaponiya qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan.

G'or-makon 10x7 m. xajmdagi maydonga ega bo'lib, kirish qismi janubi-sharqqa qaragan. 2002-yilda dastlab uning 3 m<sup>2</sup> o'lchamdagi maydon ochib o'rganildi.

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

2003-yilda o‘rganilayotgan maydon bir-biriga tutashgan hamda 2002-yildagi qazuv maydonini ham o‘ziga biriktirgan 2x4 m. (ko‘ndalang) va 1x5 m. (bo‘yiga) o‘lchamidagi qazuv maydoni hisobiga kengaytirildi. Natijada qazib o‘rganilayotgan hudud maydoni umumiy holda 11 m<sup>2</sup> ni tashkil qildi.

Tadqiqotlar natijasida unchalik qalin bo‘lmagan, chirindi aralash qatlam ostida 50–60 sm. qalinlikdagi madaniy qatlamlar mavjudligi aniqlandi. Madaniy qatlamlar ostidagi g‘or tosh yotqiziqlari qazuv maydoni hududida turli balandlikka ega. Ular uzunasiga qazilgan transheyanning sharqiy va kundalang transheyanning shimoli-sharqiy qismida yer yuzasidagi tuproq sathiga ancha yaqin. G‘or tosh yotqiziqlari g‘orning ichki qismiga qarab nishablikka ega. Bu g‘or tosh yotqiziqlari hamda unga mos ravishda madaniy qatlamlar nishabligi ham ancha sezilarli bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uzunasiga qazilgan transheyanning sharqiy qismida tuproq qatlami qalinligi 15–20 sm.ga ega bo‘lsa, g‘arbiy qismida esa 1,5 m.ga yetadi.

Dastlabki qazilma ishlari natijasida yodgorlik madaniy qatlamlari rangi va tuzilishiga ko‘ra uchga: sariq rangdagi tepa qatlam (2 qatlam), kulrang tusli o‘rta qatlam (3-qatlam) va sariq rangli quyi qatlamga (4-qatlam) ajratildi. Keyingi qazish jarayonlarida 4-madaniy qatlamning quyi qismidagi artefaktlar g‘ordagi odamlarning faoliyati natijasida materik qatlamiga chuqur kirib ketganligi aniqlanib, ushbu topilmalar alohida 5-madaniy qatlam topilmalari sifatida qayd etildi. Madaniy qatlamlardan 2 va 4 qatlamlar sharqqa qarab yupqalashib boradi. G‘or maydonining sharqiy chekka qismida madaniy qatlamlar faqat o‘rta yoki ikkinchi qatlam bilan bog‘liq. Bunga g‘or maydoni sathining ichki qismiga qarab tik nishabligi sabab bo‘lgan.

Yodgorlikning O‘zbekiston paleoliti uchun ahamiyatli tomonlaridan biri unda antropologik materialning topilishi bo‘lgan. G‘or-makoni madaniy qatlamlaridan topilgan o‘ng oyog‘ning metatarsal suyagi qaysi jismoniy tipga tegishlilikini aniqlash imkoni bo‘lmagan.

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaao.com/index.php/4>

2013–2014-yillarda O‘zbekiston-Yaponiya qo‘shma ekspeditsiyasi olib borgan tadqiqotlar natijasida madaniy qatlamlar qaytadan taqsimlandi. Madaniy qatlamlarning qayta taqsimotida avval ajratilgan 2-madaniy qatlam uchga (Angillak 1(1), Angillak 1(2), Angillak 1(3)) ajratildi. 2 va 3 madaniy qatlamlar o‘rtasida oraliq qatlam Angillak 2, deb belgilandi. 3-madaniy qatlam Anlillak 3 va 4 ga bo‘lindi. 4-madaniy qatlam Angillak 5 va 6 ga ajratildi. Shuningdek 4-madaniy qatlamning 5-qatlamga aralash quyi qismi va 5 madaniy qatlam Angillak 7 sifatida ajratildi.

Madaniy qatlamlarning ushbu mikrostrategrafik taqsimoti 2004-yilgi qazishma ishlari natijasiga tayanib, dastlabki tadqiqotchilar tomonidan o‘z vaqtida bu borada xulosalar ta’kidlab o‘tilgan edi [2].

Yodgorlik madaniy qatlamlari davrini aniqlash uchun tadqiqotlar davomida tahlillar o‘tkazilgan. Dastlabki tahlillar Angillak madaniy qatlamlari uchun 27000-42000 ming yil natija berdi. Ushbu tahlil natijalarida yodgorlik madaniy qatlamlarining quyi chegarasi uchun olingan 27000 ming yil natijasi industriyaga mos emasligi uchun tadqiqotchilar tomonidan inkor etildi. 2013–2014-yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ham yodgorlik madaniy qatlamlari davrini aniqlash uchun bir qator namunalar olingan. Ularga ko‘ra yodgorlik madaniy qatlamlari yoshi 50 ming yildan qadimgi ekanligi ko‘rsatilgan. Ohirgi arxeologik qazish ishlarining natijasiga asosan tadqiqotchilar g‘or-makonni muste davri bilan sanalagan. Janubiy Tojikiston Respublikasi tog‘ va tog‘oldi vodiysidagi Og‘zi kichik, Qorabura va Oqjar, Qirg‘iziston Respublikasi hududagi Tossor va Georgiy do‘ngligi kabi makonlar o‘rta paleolit davrining muhim yodgorliklaridir [3]. Ulardan turli xil tosh qurollari va hayvon suyaklari topib o‘rganilgan. Ushbu makonlarda yashagan odamlar mahalliy tog‘ hududida tarqalgan hayvonlarni ov qilib, o‘simliklarni terib- termachilab kun kechirgan. Ma’lumki, o‘rta paleolit davridan eng qadimgi odamlar ongida narigi dunyo to‘g‘risidagi tushunchaning dastlabki kurtagi shakllana boshlaydi. Eng qadimgi odamlar olamdan o‘tgan yaqinlarini maxsus qabrda dafn eta boshlaydilar. O‘rta

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaaoa.com/index.php/4>

paleolit davriga oid qabrlar Yevrosiyoning ko'pgina yodgorligidan topib o'rganilgan. Ulardan Spi (Belgiya), Bufiya va Lya Ferrasi (Fransiya) g'orlari, Karmen tog'idagi Et Tabun va Es Sxul (Falastin) g'orlari, Kiyik-Koba g'ori (Qrim), Denisova g'ori (Oltoy), Teshiktosh g'orlarida marhumlar maxsus dafn etilgan qabrlar aniqlangan. Obirahmat g'or-makonidan ham eng qadimgi odam suyagi topilgan. Bu davrdagi qabrlarda bir va bir nechta mayitlar ko'milgan. Masalan, Lya Ferrasi g'oridan bir joydan olti nafar odam suyagi topilgan.

2014-yildan boshlab Janubiy O'zbekistonda, xususan, Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi Machay darasida O'zbekiston-Yaponiya xalqaro ekspeditsiyasi ish boshladi va bu yerdan neolit davriga oid Qaynar-Kamar g'or makoni ochib o'rganilmoqda. Yodgorlikning pastki 20 santimetrlik madaniy qatlami neolit davrining boshlariga oidligi aniqlangan. G'orning ushbu qatlamidan olingan tahlillar (radiokarbon S14) mil.av. 7,5 ming yilliklar bilan sanalangan [4].

2017-yilda O'zR FA Arxeologik tadqiqotlar instituti bilan Xitoy FA Umurtqalilar paleontologiyasi va paleoantropologiya instituti o'rtasida tuzilgan xalqaro O'zbekiston-Xitoy ekspeditsiyasi Boysun arxeologik guruhi tomonidan To'da qishlog'ining g'arbiy chekkasida joylashgan tog' massividan shu nomli g'orda izlanishlar olib borildi [5]. Bu yerda 2,20 m chuqurlikdan turli qalinliklardagi 24 ta neolit davri madaniy sathlari aniqlandi. Ushbu qatlamlardan o'choq, fauna, flora qoldiqlari bilan birga ko'plab tosh ashyolar topildi. Tilga olingan har ikkala yodgorlik materiallari asosida hozirdanoq aytish mumkinki, Janubiy O'zbekiston hududida o'ziga xos neolit madaniyati hukm surgan. Ushbu madaniyatning asosiy xususiyati mikroindustriya hamda paleolit davri uchun xos bo'lgan qo'pol tosh ashyolarning omuxta holatda uchrashidir [6].

Ko'lbuloqning so'nggi paleolitga xos qatlamlarining geologik holati haqida ham-xilma xil qarama-qarshi fikrlar mavjud. Uni qazib o'rgangan mutaxassislar (M.R.Qosimov) madaniy qatlamlar stratigrafik jihatdan aralashmagan desalar, boshqa bir guruhlari ushbu qatlamlarni va shuning bilan birga undagi

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

materiallarni aralashib ketgan, deb hisoblaydilar [7]. Bu masalaga hozirda endigina boshlangan O‘zbek-Rossiya-Belgiya qo‘shma ekspeditsiyasining Ko‘lbuloqdagi tadqiqotlari yanada oydinlik kiritadi.

Yaqin vaqtgacha Vodiy tog‘li hudularida aniqlangan yuqorida esaltilgan ikki – Toshko‘mir va Obishir 1-5 yodgorliklaridan boshqa mezolit va neolit davriga oid manzilgoh aniqlanmagan edi. 2017-yilda vodiyning janubiy qismida Qirg‘izston-Rossiya qo‘zshma arxeologik ekspeditsiyasi So‘x daryosi vohasida Eshma qishlog‘i yaqinida Aydarkon shaharchasidan 10 km uzoqlikda Aydarkon–So‘x avtomobil trassasi o‘ng tomonidan Sur qishlog‘ida Surungur nomli ilk va o‘rta golotsen davri manzilgohini aniqladi [8].

Surungur makonini tadqiq qilish jarayonida fanlararo tadqiqotlar hamkorligi yordamida kompleks yondashuvdan foydalanilganligi arxeologik tadqiqot uchun eng istiqbolli uchastkalarini aniqlash imkonini berdi. O‘tgan dala tadqiqotlari mavsumida kichik maydon qazilgan bo‘lib, u yerda turli davrlarga oid bir qator gulhan izlari aniqlandi. Bu o‘z navbatida o‘sha joyda buzilmagan madaniy qatlamlar haqida gapirish imkonini beradi. Olingan arxeologik materiallar makonni o‘zlashtirish jarayoni eng uzog‘i bilan ilk golotsen davrida amalga oshganligini ko‘rsatmoqda. Palinologik tahlillar asosida obyektga yaqin atrofdagi o‘simliklar va iqlim sharoitining – tez-tez yong‘in sodir bo‘ladigan quruq va sovuq iqlim sharoitidan ~ 7500-7000 kal. y.o. va ~ 2500 kal. y.o. qulayroq issiq va nam iqlim o‘zgarish jarayoni asosiy bosqichlari tarixiy rekonstruksiya qilindi. Obiraxmat g‘ori materiallarining sanasi borasida ham mahalliy kadrlar bilan xorijlik mutaxassislar o‘rtasida turli qarashlar mavjud bo‘lgan. Masalan yirik arxeolog olim R.X.Suleymanov tadqiqotlarida yodgorlik madaniy qatlamlarining sanasi 80 ming yil bilan belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston-Rossiya ekspeditsiyasi tadqiqotlarida ushbu sanalash o‘zining yangi tasdig‘ini topdi. Obiraxmat g‘ori industriyasidagi ko‘p sonli levallua texnikasi ham ikki xil talqin qilindi. Bunda mutaxassislarning levallua texnikasi tushunchasiga bo‘lgan qarashlarining turlichaligi sabab bo‘ldi. Arxeologik adabiyotlarda levallua tushunchasi bundan

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaopenaccess.com/index.php/4>

100 yil avval paydo bo‘lgan. Ammo, hanuzgacha ushbu tushunchaga umumiy qabul qilingan aniqliklar ishlab chiqilmagan va u yakdillik bilan qabul qilinmagan. Levallua texnikasi haqidagi munozaralar hanuzgacha tinganicha yo‘q [9].

Obiraxmatni dastlab o‘rgangan R.H.Suleymanov levallua texnikasi tushunchasini “tor ma’noda” qabul qilganligi uchun yodgorlik industriyasida plastinali levallua texnikasi uchramasligini qayd etgan bo‘lsa [10], rossiyalik mutaxassislar levallua texnikasini “keng ma’noda” qabul qilganlar va Obiraxmatda plastinali levallua foizi juda yuqori darajada ekanligini ta’kidlashgan [11].

Obiraxmat g‘or manzilgohi [12] Toshkent shahridan 100 km shimoli- sharqda, Chotqol va Pskom daryolari quyilishiga yaqin joyda joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1250 m. G‘or janub tomonga qaragan bo‘lib kirish qismi eni 20 m., chuqurligi 9 m. va balandligi esa 11,8 m. ni tashkil qiladi. Manzilgoh 1962-yili A.R.Muhammadjonov tomonidan kashf etilgan. Yodgorlikda qazish ishlarini dastlab X.K.Nasriddinov, boshlab bergan 1964–1965-yillar mobaynida R.X.Sulaymonov tomonidan qazib o‘rganilgan. O‘sha paytlardagi qazishmalarning umumiy maydoni 60 m<sup>2</sup> bo‘lib, madaniy yotqiziqqlarning qalinligi 2 m. gacha yetadi. O‘tgan asrning 90-yillarida yodgorlikda O‘zbekiston-Rossiya arxeologik ekspeditsiyasi qazish ishlarini boshladi. Natijada, Obiraxmatning tosh industriyasi o‘rta paleolitning oxiri hamda so‘nggi paleolitning boshlanishi davriga oid deb topildi va Markaziy Osiyo paleolitshunosligida birinchi marta “ilk so‘nggi paleolit” iborasi fanga kiritildi. Ma’lumki, fanda xomo sapiyens sapiyens, ya’ni zamonaviy odamning paydo bo‘lishi hamda shuning bilan birga so‘nggi paleolit davrining genezisi masalalari hozirgacha katta muammo bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun mutaxassislar tomonidan so‘nggi paleolit odami va davrining paydo bo‘lishi ildizlarini izlash tabiiy hol va juda dolzarb masaladir [13].

So‘nggi paleolit davriga oid Toshkent vohasidagi yana bir yodgorlik Chirchiq daryosi terrassalaridan topilgan Dodikatem topilma joyidir. Bu joyda 2005-yili

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

O‘zbek-Rossiya qo‘shma ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan amalga oshirilgan so‘nggi paleolit davrining ohirgi bosqichlariga oid tosh qurollar topilgan [14].

### XULOSA

O‘zbekiston hududidagi tosh davri yodgorliklarini o‘rganishda xorijiy olimlar va xalqaro arxeologik ekspeditsiyalarning o‘rni muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, AQSh, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va boshqa davlatlar olimlari ishtirokida amalga oshirilgan qo‘shma tadqiqotlar natijasida mamlakatimiz hududidagi paleolit davri yodgorliklari yanada chuqurroq o‘rganildi. Angillak, Obirahmat, Ko‘lbuloq kabi yodgorliklarda olib borilgan xalqaro ekspeditsiyalar qazilma ishlari orqali yangi arxeologik materiallar aniqlanib, ularning stratigrafiyasi, xronologiyasi va madaniy xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy metodlar – radiokarbon tahlili, mikrostratigrafiya, paleoekologik va palinologik tadqiqotlarning qo‘llanishi tosh davri madaniyatining davrlashtirilishini aniqlashtirishga xizmat qildi. Xorijiy mutaxassislarning ishtiroki ilmiy metodologiyaning boyishiga hamda fanlararo tadqiqotlar rivojlanishiga zamin yaratdi. Natijada Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamiyat taraqqiyoti, qadimgi odamlarning yashash muhiti va xo‘jalik faoliyati haqida yangi ilmiy xulosalar shakllandi. Shu bilan birga, xalqaro ekspeditsiyalar faoliyati O‘zbekiston arxeologiya maktabining rivojlanishiga, yosh mutaxassislar tayyorlashga hamda ilmiy tajriba almashinuviga ham katta hissa qo‘shdi. Demak, xorijiy olimlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan tadqiqotlar O‘zbekiston hududidagi tosh davri tarixini yanada mukammal o‘rganish va uni jahon arxeologiyasi kontekstida baholash imkonini bermogda.

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

### Adabiyotlar ro‘uxati / Список литературы / Bibliografiya

1. Сулейманов Р.Х., Глантз М., Шпраубер А., Хугес П. Результаты предварительного изучения памятников мустьерского времени в долине Кашкадарьи // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2002-йил. №3. Тошкент, 2003. – Б. 179-180.
2. Сулейманов Р. Х. Отчет о раскопках грота Ангиллак в 2004 г. – С. 18.
3. Ibragimov R. Arxeologiya. – Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2022. – В. 35.
4. Арипджанов О.Ю., Сулейманов Р.Х., Нишиаки Й., Сайфуллаев Б., Эргашев О., Наката Х., Арай С., Акаши Ч. Научный отчет о рекогносцировочных работах в долине Мачай. Ташкент 2017 г. Ф.5, О.1, Д.247. – С. 1-20.
5. Жо Синг, Сайфуллаев Б.К. // Грот Тода-1 - новый неолитический памятник на юге Узбекистана. Археология Узбекистана, № (2)17. Самарканд, 2018. – С. 147-156.
6. Исламов У.И. Пещера Мачай. Ташкент. Изд-во «ФАН» АН РУз. 1975. – С. 198.
7. Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 94.
8. Шнайдер С.В., и др. Сурунгур – новый памятник раннего голоцена в Ферганской долине // Stratum plus. №2. 2021. – С. 319-337.
9. Гладилин В.Н. Что же такое техника леваллуа? // Каменный век: памятники, методика, проблемы. Киев, 1989. – С. 30-45.
10. Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. Ташкент, 1972. – С. 171.
11. Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И. Предварительные итоги работы узбекско-российской археологической экспедиции (1998-2008) // Ўзбекистон тарихи. 2008. №3. – С. 3-8.

## Eureka Journal of Humanities and Social Research (EJHSR)

ISSN 2760-4934 (Online) Volume 2, Issue 4, April 2026



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://eurekaoa.com/index.php/4>

12. Насриддинов Х.К. Грот Оби Рахмат // ИМКУ. Вып. 5. 1964. – С. 7; Сулайманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. Ташкент. 1972. – С. 98; Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 13.
13. Деревянко А.П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Алимов К., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Сайфуллаев Б.К. Исследования грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) в 1999 г. // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Изд-во ИАЭТ СО РАН, Новосибирск. 1999. – С. 44-66. Деревянко А.П., А.И. Кривошапкин, А.А. Анойкин, У.И. Исламов, Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Сайфуллаев Б.К. Ранний верхний палеолит Узбекистана: Индустрия грота Оби Рахмат (по материалам слоев 2-14) // Археология, этнография и антропология Евразии 4 (8). Новосибирск. 2001. – С. 144. Деревянко А.П., Анойкин А.А., Кривошапкин А.И., Милютин К.И., Исламов У.И., Сайфуллаев Б.К. Новые данные о палеолитических индустриях пещеры Пальтау (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во Института археологии и этнографии СО РАН. Новосибирск. 2002. –С. 124. Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Милютин К.И., Исламов У.И., Сайфуллаев Б.К. Исследование грота Оби Рахмат (Республика Узбекистан) // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во Института археологии и этнографии СО РАН. 2002. – С. 44. Деревянко А.П., Исламов У.И., 2003. Деревянко А.П., Исламов У.И., Новосибирск. 2004. – С. 158.
14. Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И. и др., Новосибирск. 2007. – С. 156.